ISSN: 2181-3477
JILD:05 NASHR: 08 2026 yil
SCIENCE BOX
SIYOSATSHUNOSLIK, HUQUQ VA XALQARO MUNOSABATLAR JURNALI

XORIJIY DAVLATLARDA YUVENAL YUSTITSIYA TIZIMLARI: QIYOSIY-HUQUQIY TAHLIL VA O'ZBEKISTON UCHUN ISLOHOT ISTIQBOLLARI

Shavkatov Shaxboz Shavkatovich
O'zbekiston Respublikasi Kriminologiya ilmiy tadqiqot instituti, ilmiy xodim-tadqiqotchi

Annotatsiya

Maqolada voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashish va uning oldini olish bo'yicha AQSH, Germaniya, Norvegiya, Islandiya, Yaponiya, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasining huquqiy-institutsional tajribasi qiyosiy-huquqiy metod asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot maqsadi — turli huquqiy tizimlarda shakllangan yuvenal yustitsiya modellarining umumiy tamoyillari va o'ziga xos jihatlarini aniqlash hamda ularning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi va huquqni qo'llash amaliyotiga implementatsiya qilinishi mumkin bo'lgan elementlarini ilmiy asoslashdan iborat. Tahlil natijalariga ko'ra, muvaffaqiyatli modellarning barchasida umumiy tendensiya kuzatiladi: jazolashdan tarbiyalash va ijtimoiy reabilitatsiyaga o'tish, ixtisoslashgan sub'ektlar institutini rivojlantirish hamda oila va jamiyat resurslarini profilaktika jarayoniga jalb etish. Maqola oxirida O'zbekiston Respublikasida ixtisoslashgan sudyalar institutini joriy etish, ijtimoiy xodimlarni sud jarayoniga integratsiya qilish va terminologik islohotlarni amalga oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: yuvenal yustitsiya, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi, qiyosiy huquq, xalqaro tajriba, ko'p tizimli terapiya, tiklovchi adolat, probatsiya, O'zbekiston.

Kirish

Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish va ularga nisbatan odil sudlovni amalga oshirish masalasi zamonaviy huquq fanining eng dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. XX asr davomida dunyoning ko'plab davlatlari voyaga yetmaganlar bilan bog'liq ishlarni umumiy jinoyat sudlovi tizimidan ajratib, alohida — pedagogik va ijtimoiy-reabilitatsion tamoyillarga asoslangan yuvenal yustitsiya institutlarini shakllantirdi. Ushbu jarayon Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Bola huquqlari to'g'risida"gi konventsiyasi, voyaga yetmaganlarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirishga doir minimal standart qoidalari (Pekin qoidalari,) hamda voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha rahbariy tamoyillari (Ar-Riyod tamoyillari,) bilan uzviy bog'liq holda rivojlandi [1].

O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda voyaga yetmaganlar ishlari umumiy jinoyat sudlari tomonidan, muayyan protsessual yengilliklar (pedagog yoki psixolog ishtiroki) bilan ko'rib

chiqiladi, biroq alohida ixtisoslashgan sudlar tarmog'i mavjud emas. Shu bilan birga, mamlakatda amalga oshirilayotgan sud-huquq islohotlari va inson huquqlarini ta'minlash siyosati doirasida xorijiy davlatlarning ilg'or tajribasini ilmiy asosda o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — AQSH, Germaniya, Norvegiya, Islandiya, Yaponiya, Rossiya Federatsiyasi va Qozog'iston Respublikasining yuvenal yustitsiya sohasidagi huquqiy-institutsional tajribasini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish, ularning umumiy tamoyillari va farqlarini aniqlash hamda O'zbekiston Respublikasi uchun ilmiy asoslangan islohot takliflarini ishlab chiqishdan iborat.[2]

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini qiyosiy-huquqiy, tarixiy-huquqiy va tizimli-strukturaviy tahlil usullari tashkil etadi. Tadqiqot ob'ekti sifatida yetti davlatning (AQSH, Germaniya, Norvegiya, Islandiya, Yaponiya, Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston Respublikasi) milliy qonunchiligi, institutsional tuzilmasi hamda ushbu sohadagi ilmiy adabiyot va rasmiy statistik ma'lumotlar tanlab olindi. Davlatlar tanlanishida ularning turli huquqiy oilalarga (anglo-sakson, kontinental-yevropa, sharqiy-osiyo, MDH huquqiy makoni) mansubligi hamda yuvenal yustitsiya sohasida farqli, ammo har biri o'ziga xos yutuqlarga ega modellarni namoyon etishi asosiy mezon bo'lib xizmat qildi. Har bir davlat tajribasi quyidagi mezonlar bo'yicha tahlil qilindi: (1) institutsional tuzilma (ixtisoslashgan sudlar, politsiya, ppoбatsiya xizmatlari mavjudligi); (2) qo'llaniladigan asosiy yondashuv (jazolash yoki tarbiyalash-reabilitatsiya); (3) profilaktikaga jalb etilgan sub'ektlar doirasi; (4) qayd etilgan miqdoriy natijalar (retsidiv darajasi, huquqbuzarlik ko'rsatkichlari dinamikasi).[3]

Xorijiy tajriba tahlili

Amerika Qo'shma Shtatlari: ixtisoslashgan sud modeli

AQShda voяga yetmaganlar sudi tizimi shtatlar darajasida tartibga solingan bo'lib, uning markazida bola manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan bir qator protsessual o'ziga xosliklar yotadi. Xususan, sud majlislari yopiq tartibda o'tkaziladi, terminologiya neytrallashtirilgan ("ayblov" o'rniga "jamoaviy murojaat", "jazo" o'rniga "tarbiyaviy chora"), hay'at sudi majburiy emas — qarorni bolalar psixologiyasini tushunadigan ixtisoslashgan sudya chiqaradi. Qo'llaniladigan choralar orasida probatsiya, jamoat ishlari, restitutsiya va tarbiyaviy-davolash markazlariga yo'llash ustuvor o'rin tutadi; faqat o'ta og'ir jinoyatlarda ish kattalar sudiga o'tkaziladi.[4] AQSh Adliya vazirligi huzuridagi Voyaga yetmaganlar odil sudlovi va huquqbuzarliklarning oldini olish boshqarmasi (OJJDP) rasmiy statistikasiga ko'ra, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir etilgan zo'ravonlik jinoyatlari bo'yicha hibsga olishlar soni 2006–2019-yillar oralig'ida 50 foizga, umumiy hibsga olishlar soni esa 2006-yildan buyon 67 foizga kamaygan. Ushbu barqaror pasayish tendensiyasi ixtisoslashgan yuvenal sud tizimi va profilaktik dasturlarning uzoq muddatli samaradorligini bilvosita tasdiqlaydi, garchi tadqiqotchilar bu pasayishni faqat sud islohotlari bilan emas, balki bir qator ijtimoiy-demografik omillar bilan ham bog'liq deb hisoblashadi.[5]

Germaniya: pedagogik ustuvorlik modeli

Germaniyaning yuvenal huquq tizimi to'liq pedagogik ta'sir ko'rsatish tamoyiliga asoslanadi — jinoyat sodir etgan shaxs "jazolanuvchi" emas, balki "tarbiyalanuvchi" sifatida ko'riladi. "Voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha sudlari to'g'risida"gi qonun ilk bor 1923-yilda qabul qilingan bo'lib, 1953-yilgi tubdan islohotdan so'ng "Jazolash emas, tarbiyalash" tamoyili qonunning bosh shiori sifatida mustahkamlangan. Bu yondashuvning ilmiy asosi ikki jihatga tayanadi: birinchidan, kriminologik kuzatuvlar qamoq jazosining o'smirni sog'lomlashtirish o'rniga uni jinoiy submadaniyatga moslashtirishini ko'rsatgan; ikkinchidan, rivojlanish psixologiyasi 14–18 (hatto 21) yosh oralig'ini ijtimoiylashuvi yakunlanmagan, emotsional beqaror faza sifatida belgilaydi, bu esa faqat pedagogik-tarbiyaviy choralarning samarali bo'lishini ilmiy jihatdan asoslaydi.[6]

Norvegiya: ko'p tizimli terapiya (Multisystemic Therapy) modeli


Norvegiya 1999-yildan boshlab professor Skott Xenggeler tomonidan ishlab chiqilgan ko'p

tizimli terapiya (MST) dasturini davlat miqyosida joriy etib, uni voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasining markaziy elementiga aylantirdi. Dastur o'smirning o'zi bilan emas, balki uning butun ijtimoiy muhiti — oila, maktab, tengdoshlar guruhi va mahalliy hamjamiyat — bilan bir vaqtning o'zida ishlashga asoslangan bo'lib, har bir o'smir uchun xavf va himoya omillari kompleks baholanadi hamda individual reabilitatsiya rejasi tuziladi. Xalqaro meta-tahliliy tadqiqotlar MST dasturining antisotsial xulq-atvor va retsidivni kamaytirishda statistik jihatdan barqaror, o'rtacha samaradorlikka ega ekanini tasdiqlagan[7]. Norvegiya Bolalar xulq-atvorini rivojlantirish milliy markazi (NUBU) tomonidan o'tkazilgan o'n yillik milliy monitoring tadqiqotida 2024-yilda e'lon qilingan natijalarga ko'ra, 4103 nafar o'smir MST dasturini to'liq yakunlagan bo'lib, ulardan 5,39 foizi sudlanganlik tarixiga ega bo'lgan; dastur davomida ikkala guruhda ham kriminogen xavf omillari (jumladan giyohvandlik va nazoratsizlik ko'rsatkichlari) sezilarli darajada kamaygan, bu esa dasturning yuqori xavf guruhidagi o'smirlarga ham samarali ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi[8].

Islandiya: ijtimoiy profilaktika modeli ("Youth in Iceland")

1998-yildan amalga oshirilayotgan Islandiya modeli huquqbuzarlik sodir bo'lgandan keyin emas, balki uning kelib chiqish sabablarini barvaqt bartaraf etishga qaratilgan. Model doirasida har yili 14–16 yoshli o'quvchilar o'rtasida ijtimoiy so'rovlar o'tkazilib, olingan ma'lumotlar asosida har bir munitsipalitet uchun alohida profilaktika dasturlari ishlab chiqiladi; davlat bolalarning sport va ijodiy to'garaklarda ishtirok etishini moliyaviy qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu yondashuv Koen va Felsonning vaziyatli jinoyat nazariyasi bilan nazariy jihatdan uyg'unlashadi: bo'sh vaqtni nazoratli va mazmunli tashkil etish orqali huquqbuzarlik uchun "qulay vaziyat"lar soni kamaytiriladi. Islandiya Ijtimoiy tadqiqotlar milliy markazi (ICSRA) tomonidan har yili o'tkaziladigan "Youth in Iceland" so'rov turkumi natijalariga ko'ra, 1998–2018-yillar oralig'ida 10-sinf o'quvchilari orasida so'nggi 30 kunda mastlik holati 42 foizdan 5–6 foizgacha, kundalik tamaki chekish 23 foizdan 2–3 foizgacha va giyohvand moddalarni umrida hech bo'lmaganda bir marta iste'mol qilganlar ulushi 17 foizdan 6–7 foizgacha kamaygan [9]. Ushbu dinamika quyida keltirilgan (5-diagramma).

5-diagramma. Islandiya "Youth in Iceland" dasturi natijalari (1998-2018)



Yaponiya: jamoat politsiyasi va tiklovchi yondashuv

Yaponiyaning "koban" (mahalliy politsiya punkti) tizimi dunyodagi eng samarali jamoat politsiyasi modellaridan biri sifatida tan olingan. Koban zobitlari nafaqat huquqbuzarlikka javob berish, balki mahalliy aholi bilan doimiy ishonch munosabatlarini shakllantirish, profilaktik tashrif va tushuntirish ishlari orqali huquqbuzarlikning oldini olish vazifasini bajaradi. Ilmiy adabiyotda yapon jinoyat-huquq siyosati tarixiy jihatdan Braytveytning tiklovchi uyalantirish (reintegrative shaming) nazariyasi bilan bog'lab tahlil qilinadi — jamiyat huquqbuzarni stigma bilan emas, balki

qayta integratsiya orqali qabul qilishga intiladi, garchi so'nggi yillarda populistik-jazolovchi tendensiyalar kuchayganligi ham qayd etiladi [10].

Rossiya Federatsiyasi: ko'p subyektli komissiyalar tizimi

Rossiyada voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi profilaktikasi 1999-yilgi 120-Federal qonun asosida tashkil etilgan bo'lib, uning markazida voyaga yetmaganlar ishlari va ularning huquqlarini himoya qilish bo'yicha komissiyalar turadi. Ushbu komissiyalar tarkibiga ichki ishlar organlari, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va mahalliy hokimiyat vakillari kiradi hamda har bir holat individual tartibda, zarur bo'lganda psixolog va pedagoglar jalb etilgan holda ko'rib chiqiladi. Modelning kuchli tomoni uning ko'p subyektli va kompleks xarakteri bo'lsa, zaif tomoni — mamlakat hududlari bo'yicha amaliyotning bir xil darajada rivojlanmaganligidir.[11]

Qozog'iston Respublikasi: ixtisoslashgan sud, politsiya va mediatsiya

Qozog'iston MDH makonida yuvenal yustitsiyani institutsional jihatdan eng izchil rivojlantirgan davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda ixtisoslashgan yuvenal sudlar, yuvenal politsiya inspektorlari instituti hamda voyaga yetmaganlar ishlarida keng qo'llaniladigan mediatsiya institutlari faoliyat yuritadi. Ablaeva tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, 16 ta ixtisoslashgan yuvenal sud negizida o'tkazilgan sotsiologik so'rov natijalari ushbu sudlarning aholi ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlarini yaxshilashda sezilarli rol o'ynaganini tasdiqlagan. Yengil jinoyatlarda taraflar o'rtasida kelishuvga erishilsa, ish mediatsiya tartibida hal qilinishi mumkin — bu bolaning sudlanganlik holatiga tushib qolishining oldini oladi va tiklovchi odil sudlov tamoyillarini ro'yobga chiqaradi.[12]

Belarus, Qirg'iziston, Ozarbayjon va Armaniston Respublikalarida ham xalqaro standartlar (Bola huquqlari to'g'risidagi konvensiya, Pekin qoidalari, Ar-Riyod tamoyillari) milliy qonunchilikka bosqichma-bosqich implementatsiya qilinmoqda, biroq ixtisoslashgan yuvenal sudlar va politsiya institutlarining rivojlanish darajasi Rossiya va Qozog'istonga nisbatan quyiroq bo'lib, asosiy e'tibor profilaktika komissiyalari va ijtimoiy xizmatlar faoliyatiga qaratilgan.

Qiyosiy tahlil natijalari

Yuqorida tahlil qilingan davlatlar tajribasining umumlashtirilgan qiyosiy jadvali quyida keltirilgan (1-jadval).[13]

Davlat	Model turi	Asosiy institut	Qayd etilgan natija
AQSH	Ixtisoslashgan sud (justice model)	Yuvenal sudlar, maxfiy jarayon	Zo'ravonlik jinoyatlari bo'yicha hibsga olish 2006-2019 y. 50%ga kamaygan (Puzzanchera, 2021)
Germaniya	Pedagogik model	"Tarbiyalash, jazolamaslik" tamoyili	Qamoqqa emas, tarbiyaviy choralarga ustuvorlik
Norvegiya	Ko'p tizimli terapiya (MST)	Oila, maktab, ijtimoiy xizmat hamkorligi	10 yil davomida 4 103 nafar o‘smir Ko‘p tizimli terapiya (MST) kursini yakunladi; kriminogen xavf omillarining sezilarli darajada kamaygani kuzatildi (2024-yildagi tadqiqot).
Islandiya	Ijtimoiy profilaktika ("Youth in Iceland")	Yillik so'rovlar, mahalliy dasturlar	Spirtli ichimlik 42%→5%, tamaki 23%→3% (1998-2018)
Yaponiya	Tiklovchi-jamoat modeli	"Koban" jamoat politsiyasi	Yuqori ijtimoiy nazorat, past retsidiv darajasi
Rossiya	Komissiyalar tizimi	Ko'p subyektli profilaktika komissiyalari	Individual profilaktika dasturlari
Qozog'iston	Ixtisoslashgan sud + politsiya	Yuvenal sud, yuvenal politsiya, mediatsiya	Ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlarning yaxshilanishi

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tashqi ko'rinishidagi institutsional farqlarga qaramay, barcha muvaffaqiyatli modellar uchta umumiy tamoyilga tayanadi: (1) jazolashdan tarbiyalash va reabilitatsiyaga o'tish; (2) voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi sub'ektlarning ixtisoslashuvi; (3) oila, maktab va mahalliy hamjamiyatning profilaktika jarayoniga faol jalb etilishi.

Muhokama: O'zbekiston uchun amaliy ahamiyati

Xorijiy tajribani tahlil qilish O'zbekiston Respublikasi uchun bir qator ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, AQSh va Qozog'iston tajribasidan kelib chiqib, tuman va shahar sudlarida faqat voyaga yetmaganlar ishlari bilan shug'ullanuvchi, bolalar huquqlari va psixologiyasi bo'yicha maxsus tayyorgarlikdan o'tgan ixtisoslashgan sudyalar lavozimini joriy etish maqsadga muvofiqdir — bu Pekin qoidalarining sudyalar ixtisoslashuviga doir talabiga ham to'liq mos keladi [14].

Ikkinchidan, jarayon tilining insonparvarlashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi: Labelling nazariyasiga ko'ra, o'smirga erta yoshdan "ayblanuvchi" yoki "sudlanuvchi" kabi ijtimoiy tamg'a urilishi uning "men baribir jinoyatchiman" degan salbiy psixologik pozitsiyasini shakllantirishi mumkin; shu sababli AQSh tajribasidagi kabi neytral atamalarni joriy etish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 40-moddasida kafolatlangan aybsizlik prezumpsiyasi tamoyilini ham to'liqroq amalga oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, Rossiya va Qozog'iston tajribasiga muvofiq, sud jarayoniga Ijtimoiy himoya milliy agentligi ijtimoiy xodimlarini majburiy ishtirokchi sifatida jalb etish, ular tomonidan tayyorlanadigan "Bolaning hayot sharoiti va ruhiy holati to'g'risidagi ijtimoiy ma'ruza" institutini joriy etish sud qarorlarining nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-psixologik jihatdan ham asoslangan bo'lishini ta'minlaydi. Bu, ayniqsa, Norvegiya va Islandiya modellarida qo'llaniladigan kompleks, oilaga yo'naltirilgan yondashuv bilan uyg'undir — ushbu modellarning yuqori samaradorligi, o'z navbatida, Xirshining ijtimoiy bog'lanish nazariyasi bilan ham nazariy jihatdan izohlanadi: oilaga va ijtimoiy institutlarga bog'lanishning mustahkamlanishi huquqbuzarlik xavfini kamaytiradi.

Nihoyat, Qozog'iston tajribasidagi mediatsiya institutini va Yaponiyaning tiklovchi yondashuvini inobatga olgan holda, yengil jinoyatlar bo'yicha jabrlanuvchi bilan kelishuvga erishish imkoniyatini kengaytirish, shuningdek jamoat ishlari va restitutsiya kabi muqobil choralarni qonunchilikka kiritish tavsiya etiladi. Bu choralar Muncie va Goldson tomonidan tavsiflangan "tiklovchi adolat" paradigmasiga mos ravishda, bolani jamiyatdan ajratish emas, balki uni jamiyatga qayta integratsiya qilishga xizmat qiladi.[15]

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan qiyosiy-huquqiy tahlil asosida O'zbekiston Respublikasi uchun quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi:

1. Tuman va shahar sudlari negizida voyaga yetmaganlar ishlari bo'yicha ixtisoslashgan sudyalar lavozimini bosqichma-bosqich joriy etish, ularga bolalar huquqlari va psixologiyasi bo'yicha majburiy malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish;

2. Jinoyat protsessida voyaga yetmaganlarga nisbatan qo'llaniladigan terminologiyani insonparvarlashtirish, xususan repressiv ma'noli atamalarni neytral atamalar bilan almashtirish imkoniyatlarini qonun ijodkorlik darajasida o'rganish;

3. Ijtimoiy himoya milliy agentligi ijtimoiy xodimlarini sud jarayoniga majburiy ishtirokchi sifatida jalb etish va "Bolaning ijtimoiy-psixologik holati to'g'risidagi ma'ruza" institutini joriy etish;

4. Norvegiya va Islandiya modellari asosida, probatsiya xizmati doirasida oilaga yo'naltirilgan, ko'p tizimli (multisystemic) profilaktika dasturlarini pilot tarzda sinovdan o'tkazish;

5. Qozog'iston tajribasiga muvofiq, yengil jinoyatlar bo'yicha mediatsiya va tiklovchi adolat mexanizmlarini voyaga yetmaganlar ishlarida kengroq qo'llash imkoniyatlarini normativ-huquqiy jihatdan mustahkamlash.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy davlatlarning yuvenal yustitsiya sohasidagi tajribasi shuni

ko'rsatadiki, voyaga yetmaganlar jinoyatchiligiga qarshi kurashishning eng samarali yo'li — jazoni kuchaytirish emas, balki ixtisoslashgan institutlar, ilmiy asoslangan profilaktika dasturlari va jamiyat resurslarini kompleks safarbar etishdir. Ushbu tamoyillarni milliy huquqiy tizimga bosqichma-bosqich implementatsiya qilish O'zbekiston Respublikasida voyaga yetmaganlar huquqlarini himoya qilish va huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANİLGAN ADABİYOTLAR

[1] E. Ablaeva, “Juvenile courts in the Republic of Kazakhstan: History, realities and prospects,” Lex Russica, vol. 73, no. 10, 2020.

[2] R. Bjørknes, S. Hukkelberg, K. Taraldsen, and A. T. Høstmælingen, “Does Multisystemic Therapy change criminogenic risk factors? A 10-year study among Norwegian youths with and without offenses,” Crime & Delinquency, 2024, doi: 10.1177/00111287241287134.

[3] J. Braithwaite, Crime, Shame and Reintegration. Cambridge, U.K.: Cambridge University Press, 1989.

[4] L. E. Cohen and M. Felson, “Social change and crime rate trends: A routine activity approach,” American Sociological Review, vol. 44, no. 4, pp. 588–608, 1979.

[5] K. Hamai and T. Ellis, “Crime and criminal justice in modern Japan: From reintegrative shaming to popular punitivism,” International Journal of the Sociology of Law, vol. 34, no. 3, pp. 157–178, 2006.

[6] T. Hirschi, Causes of Delinquency. Berkeley, CA, USA: University of California Press, 1969.

[7] A. L. Kristjansson, M. J. Mann, J. Sigfusson, I. E. Thorisdottir, J. P. Allegrante, and I. D. Sigfusdottir, “Development and guiding principles of the Icelandic model for preventing adolescent substance use,” Health Promotion Practice, vol. 21, no. 1, pp. 62–69, 2020, doi: 10.1177/1524839919849032.

[8] U. I. Mirzatillayev, “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining oldini olish: milliy va xorijiy davlatlar qonunchiligi tahlili,” O‘zbekiston Respublikasi IIV Kriminologiya tadqiqot instituti axborotnomasi, no. 1, 2025.

[9] J. Muncie and B. Goldson, Eds., Comparative Youth Justice: Critical Issues. London, U.K.: SAGE Publications, 2006.

[10] C. Puzzanchera, Juvenile Arrests, 2019. Washington, DC, USA: Office of Juvenile Justice and Delinquency Prevention, U.S. Department of Justice, 2021.

[11] M. A. Sattorova, “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari,” Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences, vol. 2, no. 11, 2022.

[12] United Nations General Assembly, United Nations Standard Minimum Rules for the Administration of Juvenile Justice (The Beijing Rules), Resolution 40/33. New York, NY, USA: United Nations, 1985.

[13] United Nations General Assembly, United Nations Guidelines for the Prevention of Juvenile Delinquency (The Riyadh Guidelines), Resolution 45/112. New York, NY, USA: United Nations, 1990.

[14] M. A. Usmanova and N. O. Ashurova, “Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi va uning profilaktikasi,” O‘zbekiston Respublikasi IIV Kriminologiya tadqiqot instituti axborotnomasi, no. 1, 2025.

[15] T. van der Stouwe, J. J. Asscher, and G. J. J. M. Stams, “The effectiveness of Multisystemic Therapy (MST): A meta-analysis,” Clinical Psychology Review, vol. 34, no. 6, pp. 468–481, 2014.